

Biz Ervin Seytasanov bilan O'zbekiston Badiiy akademiyasining Ikko Xiroyama Xalqaro madaniyat karvonsaroyida o'tkazilgan respublika ixtisoslashtirilgan san'at maktab-internati o'quvchilari ishtirokidagi «Dunyo bolalar nigohida» nomli tanlovko'rgazmaning ochilish marosimida tanishdik.

MO'YQALAM SEHRI

Ko'rgazmada 1-4-sinf o'quvchilarining rangtasvir, grafika, maketlash kabi yo'nalishlardagi yuzdan ortiq ijodiy ishlari namoyish etil-

moqda edi. Bizda mazkur tanlovda «Mening oilam» nomli rasmi bilan munosib ishtirok etgan Ervinning ijodi bilan yaqinroq tanishish istagi tug'ildi...

10 yoshli bu bolakayning ham tengdoshlari singari o'zi yashab turgan olamga bo'lgan munosabati, orzu-o'yulari beg'ubor. Maktabda a'lochi, rasm chizishga ishtiyoqi baland. Ko'rgazmada sovrinli o'rin olgan ijodiy ishini bunday nom bilan atalishi haqida o'zi shunday dedi:

– Men fikrlarimni rasmlar orqali ifodalagim keladi. Rasm chizayotganimda, xayolot dunyosida sayr etaman. Tabiatdagi turfa xil ranglardan hayratga tushaman. O'zim uchun tushunarli bo'lgan narsalarni, yaqin insonlarim siymosini aks ettirgim keladi. «Mening oilam» deb nomlangan ijodiy ishida dadam, onam, opam va o'zimni aks ettirganman.

– O'g'lim rasm chizishni bog'cha yoshidanoq boshlagan edi, – deydi yosh musavvirning onasi Elvira opa. – U jo'shqin ijodiy muhitda kamolga yetyapti. Rassomlar sulolasidan bo'lgani uchun bolaligida dadasi yoki bobosining rasm chizayotganini ko'rsa, ulardan bo'yoq, qog'oz so'rab, rasm chiza boshlardi. Avvaliga bolalikdagi shunchaki havas, deya unga unchalik e'tibor bermadik. Birinchi sinfda o'qiyotganida, «Navro'z» deb nomlangan rasmi bilan tengdoshlari, ustozlari nazariga tushdi. Shundan so'ng, o'g'limni respublika ixtisoslashtirilgan san'at maktab-internatiga o'tkazishga



qaror qildik. Sevimli mashg'uloti bilan shug'ullanishi uchun yangi joyda yanada keng imkoniyatlar ochildi. Avvallari bobosi va dadasining, mashhur rassomlarning tasviriy san'atga oid asarlari hamda shu yo'nalishdagi o'quv qo'llanmalaridan foydalangan bo'lsa, endilikda o'zining ham rangtasvir va grafika yo'nalishiga oid mo'jaza kutubxonasi bor...

Darhaqiqat, iqtidorli tengdoshingiz Ervin Seytasanov bunday imkoniyatlardan ruhlanib, betakror asarlar yaratyapti. O'z ijod namunalari bilan yurtimiz mustaqilligining 20, 21 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan «Qadrdon shahrim tabiati» nomli ko'rik-tanlovlarda faol ishtirok etib, Diplom bilan taqdirlandi. Shuningdek, 2012-2013-yillarda o'tkazilgan «Germaniya bolalar nigohida», «Assalom, Navro'z!» tanlovlari ham muvaffaqiyatli ishtirok etdi. «2012 – Yashil planeta» Xalqaro bolalar ekologik forumida qatnashib, sovrindor bo'ldi.

Shu kunlarda Ervin ham tengdoshlari singari ta'tilda. Uning san'atga bo'lgan qiziqishi bo'sh vaqtini yanada mazmunli o'tishiga xizmat qilmoqda.

Kelajakda mohir rassom bo'lib, o'zbek rassomchilik maktabini dunyoga tanitishiga tilakdoshmiz.

Hasan ABDUNAZAROV

Istiqolot solnomasi 1991-2013-yillar

1991-yil

Poytaxtimiz Toshkentda bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari VI sessiyasida O'zbekistonning Davlat Mustaqilligi qabul qilindi. 1-sentabr – Mustaqillik kuni, deb e'lon qilindi.

Toshkentda buyuk mutafakkir Alisher Navoiy haykali va Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'i ochildi. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan 1991-yil «Alisher Navoiy yili» deb e'lon qilindi.

1992-yil

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi XI sessiyasida qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilish to'g'risida»gi va «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kunni umumxalq bayrami deb e'lon qilish to'g'risida»gi qonunlari kuchga kirdi.

1993-yil

Davlatimiz Prezidentining «Hukumatga qarashli bo'lmagan «Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya jamg'armasini tashkil etish to'g'risida» hamda «O'zbekiston Respublikasining «Sog'lom avlod uchun» ordenini ta'sis etish to'g'risida»gi farmonlari e'lon qilindi.

Yurtimizda «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi qonun qabul qilindi.

Poytaxtimizda Sohibqiron Amir Temur haykali ochildi.

VODIYDAGI ENG ZO'R OROMGOH

«Yaxshi dam – a'lo o'qishga hamdam», deyishadi. Tog' yonbag'irlarida joylashgan oromgohlarda miriqib hordiq chiqarayotgan tengdoshlaringiz yuqoridagi naqlga amal qilib, boshlanajak o'quv yiliga yangi kuch va g'ayrat to'plashmoqda.

Bolajonlar, bugun biz sizlarni vodiyning eng zo'r oromgohi, deya e'tirof etilayotgan T. Sotvoldiyev nomli bolalar oromgohiga sayohatga taklif qilamiz.

Farg'onaning so'lim go'shalaridan birida joylashgan «UzDEU – Farg'ona» MChJga qarashli mazkur oromgohga qator yillar ingliz tili fani o'qituvchisi bo'lib faoliyat yuritgan Sofya Mixel Yulchiyevna rahbarlik qiladi. Tajribali ustoz va tarbiyachilar bu maskanda dam

olayotgan 1042 nafar bolajonlar qoshida parvona.

Bu maskanda dam oluvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari uchun turli to'garaklar tashkil qilingan. Ingliz tili, raqs,

musiq, «Mohir qo'llar», «Sehri qog'oz», «Yosh yo'lovchi» hamda sport to'garaklari shular jumlasidandir.

«O'zbekiston – Vatanim manim!», «O'zbekiston farzandiman», «Dadil qadam bos!», «Kamalak» ekspressi», «Iqtidorlarni izlaymiz», «Turli xalqlar raqslari» singari tadbirlarda

o'g'il-qizlar faol qatnashishmoqda.

Shuningdek, Farg'ona viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi va «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Farg'ona viloyati Kengashi, «Kamalak» bolalar tashkiloti

xodimlari bilan hamkorlikda qator tadbirlar uyushtirilmoqda. Bunday tadbirlar orqali bolalar favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda, qanday yo'l tutishlari lozimligini, birinchi yordam ko'rsatish usullarini qunt bilan o'rganishmoqda. Musobaqa va tanlovlarda g'olib bo'lgan o'quvchilarga sovg'alar ulashilmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi Farg'ona viloyati bo'limi, viloyat Madaniyat va sport

ishlari boshqarmasi bilan hamkorlikda turli badiiy kechalar, mashhur sportchilar bilan uchrashuvlar o'tkazilyapti.

Har bir mavsumning ochilish va yopilish marosimlari o'zgacha ruhda tashkil etiladi. Dam oluvchilar sahna ko'rinishlari, kuy va qo'shiqlar, raqslar orqali o'z iqtidorlarini namoyon etyaptilar. Sayohatimiz davomida zerikib qolmadingiz, degan umiddamiz. Bu oromgoh sizga ma'qul bo'lgan bo'lsa, kelgusi yozda, albatta, dam olishga keling. Shunda o'qiganlaringizni nafaqat o'z ko'zingiz bilan ko'rasiz, balki bevosita ishtirokchisiga ham aylanasiz.

LAYLO



(Boshi o'tgan sonlarda)

Erkin MALIK

BOLALIGIM ERTAKLARI

(Qissa)

Men ayachamning hozirgi ahvolini qaramsdanoq bilaman. Enlik qoshlari orqaga ketgan, katta-katta ko'zlari irg'ib chiqqan... go'shtingni yeyman, deb turibdi. Men shosha-pisha o'zimi oqlayman:

– Ko'yilagim tor kelib qoldi-da, ayacha... Semirib ketyapman...

Shunday deb qoq suyak qaddimni kerib, yirtiq joyni berkitmoqchi bo'laman.

– Hah, kesatmay o'l, kesatishniyam biladi bu go'rso'xta, – deydi ayacham ko'zlarini o'ynatib.

Ayacham meni bu ahvolda ko'chaga chiqarishga uyaladi.

– Qo'sqingni kiyvol, he, dardisar...

Qo'sqi degani, avrasi astariga yopishib ketgan paxtalik. Kiyib ko'chaga chiqsam, hatto tanish idlar ham mendan qo'rqib qochib qoladi. Bu qo'sqini ko'proq molxonaga kiyaman. Sigimi iydiraman deb buzoqni onasining oldiga bog'lasam, u nuqul bolasi qolib qo'sqimni yalash bilan ovora bo'ladi. Og'ziga sho'r baliqdek yoqsa kerak-da.

– Yangimni bera qoling, – deyman yalinib. Yangim deganim, bu dadam olib bergan mallarang kitel. Tugmalari yaltiroq. Tomog'imning tagidan boshlanib, kindikkacha qadalib tushadi. Hali u yog'idan, hali bu yog'idan g'urillab sovuq kirmaydi. Issiqqina, o'zimga biram yarashadi... Kiysam, beshikka belangandek bo'lib qolaman.

– Ho-o, – deydi ayacham ko'zlari battar olayib, – yanginimish-a, kiyib bo'psan uni, eshitdingmi? Bo'l, tezroq qorangni o'chir! Qaymoq sotilmay qolsa, mendan ko'radiganingni ko'rasan, bola.

– Bilmaysiz-da, ayacha, – deyman ming'irlab, – qo'sqimni kiyib borsam, meni rastaga qo'yishmaydi. U yerdagilarning kiyinishini ko'rsangiz edi, bari olifta... Qaymoqxo'rlar qaymog'i yomon bo'lsayam posonlardan olishadi.

Bu gapdan keyin ayacham yumshaydi. Kitelimni olib chiqib, menga qarab otadi.

– Ma, ol, buniyam erta kunda moxovga oshna qil!

To'rt piyola qaymoqni chambarakka joylab, guzarga chopaman. Kitelni kiyib olgandan keyin qornimning ochligiyam esdan chiqadi. Hayitning oldiga chiqqan boladek biram yayrayman, biram yayrayman. Yaxshi amaki ham bugun ko'rib: «O'h-ho'-o'-o'... to'ybola bo'lib ketibsan-ku», deb yuborsalar kerak. Kitelning sariq, yaltiroq tugmalariga qarab qo'yaman.



Yaxshi amakini topib olganman. U kishi har kuni o'zimdandir piyola qaymoq sotib oladi-da, choyxonadagi so'rildan birida bo'shshimni kuti-i-ib o'tiradi. Men qaymoqlarni sotib bo'lgach, shosha-pisha so'riga chiqaman. Yaxshi amaki kunjutli nonni shoshmasdan sindirib, burdalarni ko'proq men tomonga uyadi. «Ol, jiyanim», deydi-yu, o'zi chimdinib o'tiradi. Men issiq nonning hididan har doimgidek shoshib qolaman. Burdalarni qaymoqqa botirib, katta-katta tishlayman. Har zamonda Yaxshi amaki:

– Ol, o'g'lim, ol, qorinni to'qlab ol, bo'sh qop tik turmaydi, – deb qo'yadi. Xuddiki qornim to'ygandan keyin menga biron-bir zarur ish buyuradigandek. Non bilan qaymoqni pok-pokiza tushirgach, uyga qaytishni o'ylab qolaman. Yaxshi amaki menga bir qarab qo'yadi-da:

– Endi boraqol, ayachang kutib qoldi, – deydi.

Ba'zi paytlarda Yaxshi amaki choy ustida meni esidan chiqarib, xayol surib qolganlarini ko'raman. Nimalarni o'ylashini bilaman. O'g'lini o'ylaydi. Yaxshi amaki urushga ketganda, xotini o'g'lini olib, qayoqqadir ketib qolgan. Yaxshi amaki ularni qidirib, topolmay yuribdi. Xuddi menga o'xshaydi. Men bo'lsam oyijonimni qidirib yuribman. Ikkalamiz ham eng yaqin odamimizni qidiramiz. Acha xolam aytganidek, bariga urush sababchi. Urush bo'lmaganda, men oyijonimni, Yaxshi amaki o'g'lini yo'qotib qo'ymagan bo'lardi. Yana kim biladi, har holda men shunaqa o'ylayman. Bunday paytlarda Acha xolamning menga qarab: «O'ning o'n beshi qorong'i bo'lsa, o'n beshi yorug', mirzo bolam, Xudo xohlarsa, yorug' kunlar keladi», deganlarini eslab qolaman. Xayolimda o'sha yorug' kunlar menga ham, Yaxshi amakiga ham yaqin kelib qolgandek tuyuladi. Yop-yorug' kunlar ichidan Yaxshi amakining o'g'li, mening oyijonim chiqib kelayotgandek bo'laveradi. Qaniydi tezroq shunday bo'lsa...

Piyolalarni dastalab, Yaxshi amaki bilan xayrlashib, uyga chopaman. Bu paytda oftob bir terak bo'yi ko'tarilgan, kungay tomondagi past-u baland binolarni quyosh o'z nuri bilan yoritayotgan bo'ladi. Oftob jazillatmasa ham odamga xush yoqadi. Birpas devor tagida, oftobshuvoqda o'tirgib keladi. Aravalari serqatnov. Ko'chadan yozdagedek chang ko'tarilmaydi. Tuproq nam tortib, og'irlashib qolgan. Kuz quruq kelgan, anchadan beri yomg'ir yog'magan edi...

(Davomi bor)

GUZAR

Guzar degan joyda hammom, sartaroshxona, kiyim-kechak do'koni, choyxona, pochtaxona bor. Hammomdan chiqqan puldor amakilar qaymoq bilan issiq non olib, nonushta qilishadi. Puli yo'q bechoralar qirg yamoq choponiga o'rilib hammomdan chiqishadi-yu, ko'cha chetidan devor yoqalab uylariga qarab jo'nab qolishadi. Yonimdagi qaymoqchilar xaridor chaqirishadi. Menikining shundog'am bozori chaqqon. Sotilmay qolishidan qo'rqmayman. Quyuq, mazali. So'qimxonaning yonginasida yana bitta bostirma bor. Unda ona-bola sigir boqiladi. Sigirga qaymoqni sotib bo'lib uyga borgandan keyin tert qorib beraman. Suti yog'lik bo'lsin, deb kunjarani ayamayman. Men borguncha ayacham sigimi sog'ib qo'yadi.

Guzarda har doimgidek oluvchidan sotuvchi ko'p. Qatiqfurush, sutfurush, qaymoqfurush... Ularning bir zum ham og'zi bo'sh turmaydi, shaqillashgani-shaqillashgan:

– Kep qoling, qaymoqmas bu, maskayog', maskayog'...

– Qovoqli zog'ora non, og'zingizda eriydi...

– Sedanali non keldi, pulingiz o'zingiz bilan ketadi...

– Yog'liq qatiq... tosh qatiq...

– Yangigina sog'ilgan sut. O'pkaga davo (o'sha paytlarda sil kasali bilan og'riganlar ko'p edi).

– Lavlagiga kep qoling, qand chaynaysiz, qand...

Guzarni issiq non-u sut-qatiqlarning xushbo'ylari tutgan. Qornim ochib, boshim aylanadi... Bu borada sal omadim kelgan. Xudoyim har kuni bir bandasining qo'li bilan meni mehmon qiladi. Bir piyola qaymog'-u ikki dona kunjutli non meni choyxona so'risida kutib turadi. Guzardan qo'li ochiq



O'tayotgan har bir kun bizni eng ulug', eng aziz bayram – Mustaqilligimizning 22 yillik shodiyonalariga tobora yaqinlashtirmoqda. Ushbu qutlug' sanani yurtimiz yoshlari ham o'zgacha intiqlik va xushkayfiyat bilan qarshi oladi. Bu bejiz emas. Boisi, Istiqlol tufayli farzandlarimiz hayotida, ularning ong-u shuurida ulkan o'zgarishlar ro'y berdi. Prezidentimiz rahnamoligida yurtimizda barkamol avlod tarbiyasiga cheksiz g'amxo'rlik ko'rsatilib, yoshlarimizning ilm olishi, qay sohada bo'lmasin, o'z iqtidorini to'la namoyon etishiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

VATAN NOMIN SHARAFLANG!

Ayniqsa, mustaqillik yillarida bolalar sportini rivojlantirish, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Xususan, farzandlarimizni ommaviy tarzda sportga jalb etish, zamonaviy sport inshootlarini bunyod etish, yoshlar orasidan haqiqiy iste'dod egalarini izlab topish va ularning o'sib-ulg'ayishi, kamolga yetishi uchun yetarli sharoitlar yaratib berish borasida muayyan ishlar amalga oshirilayotir. Buning samarasi o'laroq, ko'plab yosh iqtidorli sportchilarimiz turli nufuzli xalqaro musobaqalarda mamlakatimiz sharafini munosib himoya qilib, o'zlariga bildirilayotgan yuksak ishonchni to'la oqlashmoqda.

Quvonarlisi, 2013-yilning ortda qolgan davri ham ko'plab yosh sportchilarimiz hayotida muhim iz qoldirdi. Ular ana shu vaqt oralig'ida jahon arenalarida ulkan g'alabalarni qo'lga kiritib, Vatanimiz nomini munosib himoya qildilar.

Yaqinda Eronda 18 yoshgacha bo'lgan o'g'il-qizlar o'rtasida o'tkazilgan shaxmat bo'yicha Osiyo chempionatini olaylik. Ushbu nufuzli tumirda ishtirok etgan jajji shaxmatchimiz Islombek Sindorovning Osiyo chempioni degan sharaflini nomga sazovor bo'lgani barcha yurtdoshlarimizni to'lqinlantirib yubordi. Uning akasi Javohir Sindorov va Nodirbek Yoqubboyev kumush medal egasiga aylangan bo'lsa, Shahnoza Tursunova ikkita bronza medalga sazovor bo'ldi.

Sharq yakkakurashlarining barcha turlari bo'yicha o'zbek sportchilarining qayd etayotgan natijalari ham tahsinga loyiqdir. Bunday g'alabalarining qo'lga kiritilishida taekvandochilarimizning ham munosib hissasi bor. Sportchilarimiz shu yilning iyun oyida poytaxtimizda taekvando (ITF) bo'yicha bo'lib o'tgan Osiyo chempionatida jami 33 ta oltin, 32 ta kumush va 36 ta bronza medal bilan

umumjamo'a hisobida 1-o'rinni qo'lga kiritishgani so'zimiz tasdiq'idir.

Shuningdek, iyun oyida poytaxtimiz Badiiy gimnastika bo'yicha Osiyo chempionatiga mezbonlik qilganidan xabaringiz bor. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, Istiqlol yillarida qizlarimiz orasida badiiy gimnastika eng ommaviy sport turlaridan biriga aylandi. Bugun nafaqat shahar, balki chekka-chekka qishloqlarda istiqomat qilayotgan qizlarimiz ham ushbu sport turiga oshno tutinayotgani quvonarlidir. Buning natijasi o'laroq, yosh nafosat malikalarimizning xalqaro maydondagi natijalari yildan yilga yaxshilanib bormoqda.

Bu yilgi Osiyo chempionatida qizlarimiz jamoaviy bahslarda musobaqaga kelgan barcha raqibalarini ortda qoldirib, oltin medalga sazovor bo'lishdi. Jamila Rahmatova, Mayya Filippova, Maftuna Shamsiyeva, Valeriya Davidova halqa, to'p, bulava va tasmada bajargan ajoyib kompozitsiyasi uchun hakamlar tomonidan ana shunday yuksak bahoga loyiq ko'rildi. Guruh bellashuvlarida Zarina

Qurbonova, Luiza G'aniyeva, Olga Kiryakova, Marta Rastoburova, Yekaterina Buxenko, Darya Svechnikovadan iborat qizlarimiz bulava, to'p va tasmada mashqlar bajarish bo'yicha bronza medalni qo'lga kiritishdi.

Yana bir esda qolarli musobaqa – poytaxtimizdagi «O'zbekiston» sport majmuasida o'tkazilgan og'ir atletika bo'yicha o'smirlar va qizlar o'rtasidagi IV jahon chempionatida ham atletlarimiz yaxshi natijalarni qo'lga kiritishdi. Mazkur dunyo birinchiligida 70 mamlakatdan qariyb 500 nafar yosh og'ir atletikachilar g'oliblik uchun bahs olib borishdi. Ushbu nufuzli musobaqa doirasida mamlakatimizda mehmon bo'lgan Xalqaro og'ir atletika federatsiyasi prezidenti, Xalqaro olimpiya qo'mitasi a'zosi Tomash Ayan Prezidentimiz bilan uchrashib, sport sohasida erishayotgan yutuqlarimizga, mamlakatimizda bolalar sportini rivojlantirish maqsadida olib borilayotgan ishlarga yuksak baho bergandi.

Bu so'zlarning isboti sifatida musobaqada ishtirok etgan umidli yosh og'ir atletikachimiz Mashhurbek Yo'ldoshev 50 kilogrammgacha bo'lgan o'smirlar o'rtasidagi bahslarda uchta bronza medalni qo'lga kiritdi. Dunyoning turli davlatlaridan kelgan 30 nafardan ziyod tengdoshlari bilan munosib bahs olib borgan yurtdoshimiz dast ko'tarishda 86 kilogramm, siltab ko'tarishda 110 kilogramm, ikki kurash bo'yicha 196 kilogramm natijani qayd etib, o'ziga bildirilgan ishonchni to'la oqladi.

Bundan tashqari, futbol bo'yicha O'zbekiston yoshlar terma jamoasining Turkiyada bo'lib o'tgan jahon chempionatida kuchli sakkiz jamoa orasidan o'rin olgani, yosh shashkachilarimizning Osiyo chempionatida 8 ta oltin, 4 ta kumush va 9 ta bronza medallarni qo'lga kiritganini ham g'urur va iftixor bilan tilga olamiz.

Eh-he, bunday muvaffaqiyatlar haqida yana uzoq gapirish mumkin. Quvonarlisi, Istiqlol bergan imkoniyatlardan unumli foydalanib, o'z iqtidorini ro'yobga chiqarayotgan yoshlarimiz safi kun sayin ortib bormoqda. Bu esa farzandlarimizning nurli kelajagi uchun qilinayotgan barcha ezgu ishlar o'zining ijobiy natijalarini berayotganidan darakdir.

Aziz o'quvchi, umrni oqar suvga qiyoslaydilar. Shunday ekan, umringizning eng go'zal dami bo'lgan yoshlikning qadriga yetib, o'z oldingizga jiddiy bir maqsad qo'ying va bu yo'lda olg'a intiling. Eng asosiysi, qilayotgan ishingizdan Sizni voyaga yetkazgan shu ona Vatan bahra olsin, deymiz.

Sa'dullo TURSINOV



«Yurt ozod, turmush obod» insholar va rasmlar tanloviga

QAYDASAN, PALONZE?

Istiqlol bayramimiz arafasida kim bilan suhbatlashmang, yurtimizda ro'y berayotgan o'zgarishlar, yangilanishlar haqida jo'shib, so'zlariga mehrini qo'shib gapiradi.

Tahririyatimizga kelayotgan aksariyat maktublar mavzusi ham Istiqlol! Gazetamizda e'lon qilingan «Yurt ozod, turmush obod» insholar va rasmlar tanloviga yo'llangan maktublarda ham obod diyor madhi.



Ana shunday maktublardan birini Toshkent shahrining Uchtepa tumani 62-maktabning 7-«A» sinf o'quvchisi Ilhomjon Tojiyev yo'llabdi.

Ilhomjon asli buxorolik bo'lib, yozgi ta'tilga chiqishi bilan G'ijduvondagi Firishkent qishloq fuqarolar yig'iniga qarashli Palonze qishlog'iga oshiqadi. Chunki uni mehribon buvasi va buvijonisi intiqlik bilan kutishadi-da. U yerda qishlog'ining musaffo havosidan, boldek totli mevalaridan bahramand bo'ladi, zilol suvlarida cho'milib, chiniqib, yoz gashtini suradi, dala ishlarida kattalarga ko'maklashadi. Bo'sh vaqtlarida tabiat



Yurt obodligiga biz ham hissa qo'shaylik.



Qishloqlarda qad ko'tarayotgan yangi binolar - yurt obodligining nishonasi.

qo'yniga shoshadi. Maftunkor, so'lim tabiatning betakror manzaralarini qog'ozga muhrlashga intiladi. Bu yilgi ta'tilni ham qadrdon go'shasida o'tkazayotgan Ilhomjonning ilhomi ayni kunlarda yanada

jo'shib ketgan. Istiqlol sharofati bilan kundan kunga chiroy ochib borayotgan Palonzening bugungi qiyofasini, hamqishloqlarining ko'tarinki kayfiyatini, obod turmush tarzini o'z rasmlarida ham aks ettiryapti. Ularni respublikadagi barcha tengdoshlariga ham ko'rsatishni niyat qilib, tahririyatimizga yo'llabdi.

Bugun e'tiboringizga tasviriy san'at ixlosmandi bo'lgan tengdoshingiz tanlovga yo'llagan ijodiy ishlaridan namunalar holava qilyapmiz. Ular sizga ham ma'qul bo'ladi, degan umiddamiz.

YULDUZKON

AYYOR XO'ROZ

(Bolg'ar xalq ertagi)

Xo'roz devorga sakrab chiqdi-da, qanotlarini yozib, bor ovozi bilan qichqira boshladi. Buni eshitgan Tulki yaqin o'rmondan otilib chiqdi va:

— Xayrli kun! — deb baqirdi. — Men ovozingni eshitib, yugurib chiqdim. Sen yaxshi kuylaysan! Ammo otangdek kuylay olarmikan-san?

— Otam qanday kuylardi?..

— Devor ustiga sakrab chiqardi-da, bir oyog'ini ko'tarib, bir ko'zini yumib qichqirardi. Qo'shiqchi baribir qo'shiqchi-da!

— Bu mening ham qo'limdan keladi.

Xo'roz bir oyog'ini yig'ib, bir ko'zini yumib qichqirdi.

— Sen ikki ko'zingni yumib, bir oyoqda turgan holda ham kuylay

olasanmi? — so'radi Tulki.

— Kuylay olaman! — deb baqirdi Xo'roz.

Ammo ko'zlarini yumishga ulgurmasidan Tulki bir sakrab uni tutib oldi.



O'rmonda panjalari orasiga olib, endi yeyman, deb turganida:

— Eh, — deya

xo'rsindi Xo'roz, — sening o'ringda onang bo'lganda, bunday qilmagan bo'lardi.

Keling, ertak o'qiymiz!

— U nima qilardi? — so'radi Tulki.

— Onangni yaxshi bir odati bor edi: o'lja tutgan paytlari uni yeyishdan avval ibodat qilardi. U o'ta taqvodor edi.

Tulki o'ylay-o'ylay qaror qildi: ibodat qilish kerak bo'lsa, mayli, shunday qila qolay. U oldingi oyoqlarini uzatib, ko'zlarini yumdi-da, pichirlab ibodat qila boshladi. Xo'roz esa shuni kutib turgan edi. Tulki panjalarini bo'shatgan ham ediki, u uchib borib yaqin oradagi daraxtga qo'ndi.

Tulkining fig'oni falakka chiqdi: «Meni, Tulkini aldadi-ya!»

Va och holda o'rmonga ravona bo'ldi.

Rus tilidan Shahobiddin ORTIQOV tarjimai

YUMSHOQ KEKS

Kerakli masalliqlar:

5 dona tuxum, 1 piyola shakar, 1 piyola qaymoq, 1 piyola un, bir chimdim vanilin va yarim choy qoshiq razrixlitel.

Tayyorlanishi:

Tuxum shakar bilan yaxshilab ko'pirtiriladi. Qaymoq qo'shib, ko'pirtirish davom ettiriladi. Alohida idishda un, razrixlitel, vanilin

birgalikda aralashtiriladi va tuxumli massaga qo'shiladi.

So'ngra, mikser yordamida bir tushga kirgunga qadar ko'pirtiriladi. Hosil

bo'lgan xamir maxsus qolipga solinib, 160 darajagacha qizdirilgan gaz pechida taxminan 45 daqiqa davomida pishiriladi. Tayyor bo'lgach, ustiga shakar upasi sepiladi.

Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi



Bosh muharrir
Fuzeva JALILOVA

Tahrir hay'ati:
Omonulla YUNUSOV,
Abdug'ani XOLBEKOV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Sa'dullo TURSINOV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Fuzeva ADILOVA
(mas'ul kotib),
Zikrilla TESHABOYEV,
Quroqboy ERGASHEV,
Sobitxon TURG'UNOV

Navbatchi muharrir
Axtamqul KARIMOV
Rassom
Feruz MATYOQUBOV
Dizayner
Shaxobiddin MAXMADIYEV
Musabhih
Nargiza ABDULLAYEVA

Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel: 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 46704
Buyurtma N: J 7795

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markazi
Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lgan xalqaro xayriya jamg'armasi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.